

**ORGANIK DEHQONCHILIKDA BEGONA OTLARGA QARSHI UYQUNLASHGAN
KURASH CHORALARI****Mamaturaimova Muxlisa Valijon qizi***Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti magistri.***Teshabayeb Sherzotbek Alijanovich***q.x.f.f.d (PhD)**Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti**E-mail: marxabo_rasulova@mail.ru*

Annotatsiya: *Ushbu maqolada Andijon viloyatining och tusli bo‘z tuproqlari sharoitida g‘o‘za dalalaridagi bir yillik va ko‘p yillik begona o‘tlarga qarshi kurashda ta’sir doirasi har xil bo‘lgan gerbitsidlarni qo‘llashning samaradorligi hamda g‘o‘zaning o‘sib-rivojlanishi va hosildorligiga ta’siri bo‘yicha ma’lumotlar keltirilgan. Stomp 33% e.k. va Zeldek ekstra gerbitsidlari 1 l/ga me’yorda ketma-ket qo‘llanilgan variantda bir yillik begona o‘tlar 83,0-91,6 %, ko‘p yillik begona o‘tlar 88,7-89,1 % kamaygan. Bu variantlarda nazorat variantiga nisbatan 3,4-3,8 s/ga ko‘p paxta hosili olingan.*

Kalit so‘zlar: *G‘o‘za, begona o‘t, gerbitsid, Zeldek, Stomp, o‘sish, rivojlanish, hosildorlik, samaradorlik.*

Аннотация: *В данной статье рассмотрена эффективность применения гербицидов разной сферы действия в борьбе с однолетними и многолетними сорняками на хлопковых полях в условиях светло-серых почв Андижанской области и сведения о влиянии на рост и продуктивность растения представлена. Гербициды Стомп 33% э.к. и Зелдек экстра в дозе 1 л/га уменьшили количество однолетних сорняков на 83,0-91,6%, многолетних сорняков на 88,7-89,1%. В этих вариантах по сравнению с контролем получено на 3,4-3,8 ц/га больше урожая хлопчатника.*

Ключевые слова: *Хлопчатник, сорняк, гербицид, Зелдек, Стомп, рост, развитие, урожайность, эффективность.*

Annotation: *In this state, the effectiveness of the use of herbicides of various scopes in the fight against annual and perennial weeds in cotton fields in the conditions of light gray soils of the Andijan region and the reduction of ovlines on the growth and productivity of the plant are considered. Herbicide Stomp 33% a.c. and Zeldek extra at a dose of 1 l/ha reduced the number of annual weeds by 83.0-91.6%, perennial weeds by 88.7-89.1%. In etix variantax, compared to the control, 3.4-3.8 centners/ha more cottonbush was obtained.*

Key words: *Cotton, weed, herbicide, Zeldek, Stomp, growth, development, productivity, efficiency.*

Kirish. *G‘o‘za eng qimmatbaho texnik ekin bo‘lib, xalq xo‘jaligining biron-bir tarmog‘i yo‘qki, uning mahsulotidan u yoki bu darajada foydalanmasin. Dunyo*

miqyosida paxta mahsulotlariga bo'lgan talab yildan-yilga ortib bormoqda. Ayniqsa, paxta tolasidan tayyorlanadigan kiyim-kechaklar o'zining tabiiyligi, nafisligi va gigienik jihatdan qulayligi bilan boshqa ekinlarning tolalaridan keskin farq qiladi. Shunday ekan, g'o'zaning ekilayotgan navlaridan yuqori va sifatli hosil olish qishloq xo'jaligining asosiy maqsadi hisoblanadi.

Bizning mintaqada g'o'za anhanaviy qishloq xo'jalik ekini bo'lib, paxta yetishtirish va qayta ishlash bo'yicha boy tajriba to'plagan. Soha kuchli moddiy texnika bazasiga va ilmiy texnika potentsialiga ega. Loyihalash va konstruktor tashkilotlari tomonidan sohani rivojlantirish bo'yicha katta ishlar amalga oshirilgan. O'zbekistonning jahon bozoriga mustaqil chiqish sharoitiga ega bo'lgan bugungi kunda paxta mahsulotini ishlab chiqarish, samaradorligini oshirish va uning raqobat qila olish qobiliyatini tahminlash muhim hayotiy ahamiyat kasb etadi.

Respublikamizda g'o'za ekinlaridan yuqori va sifatli hosil yetishtirish agrotexnologiyalarini takomillashtirish borasida tuproqqa asosiy ishlov berish usullari bilan birga begona o'tlarga qarshi oldini oluvchi hamda biologik kurash chora-tadbirlarini turli xil muddat va me'yorlarida uyg'unlashgan holda qo'llab tadqiqotlar olib borish juda muhim xisoblanadi.

O'zbekistonning begona o'tlari 70 oilaga talluqli bo'lib, ularni turlar tarkibi, kelib chiqishi, biologik va ekologik xususiyatlari, tarqalishi hamda keltiradigan zarariga qarab turlichadir. Begona o'tlar madaniy ekinlarga juda xam katta zarar keltiradi. Ular uzoq evalyutsion taraqqiyot mobaynida yashashga o'ziga xos moslashib kelgan. Ekologik omillarning salbiy ta'siriga madaniy o'simliklarga nisbatan ancha chidamlilikka ega bo'lgan. Shuning uchun xam ular madaniy o'simliklarga nisbatan tuproqdan namlikni mineral moddalarni va mikroelementlarni oldinroq o'zlashtiradi, natijada tezroq o'sadi, rivojlanadi madaniy o'simliklarga soya solib ularni siqa boshlaydi.

G'o'za ekilgan dalalarda uchraydigan begona o'tlar tuproqdagi suv va unda erigan mineral moddalarni o'zlashtiribgina qolmasdan, g'o'zaning me'yorida rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Natijada, paxtazorlarda uchraydigan begona o'tlar yuqori yaruslarni egallab, uning rivojlanishini to'sib qo'ymoqda, natijada hosildorlik sifati va miqdorini kamayishiga sabab bo'lmoqda. Eng muhimi, begona o'tlar paxtazorlarda uchraydigan hasharotlar hamda kasalliklarni tarqalish va infeksiyalarni saqlanish manbai bo'lib qolmoqda. Begona o'tlarga qarshi uyg'unlashgan holda agrotexnikaviy va kimyoviy kurash tadbirlarini birgalikda olib borilishi bugungi kunning dolzarb masalasi xisoblanadi.

Andijon viloyatining och tusli bo'z tuproqlari sharoitida o'stirilayotgan o'rta tolali g'o'za qator oralarida biologik xususiyatlari bilan bir-biridan farq qiladigan har xil turdagi begona o'tlar o'sadi. Ularga qarshi kurashning samaradorligini yuqori bo'lishini ta'minlash uchun begona o'tlarning tarqalishi, o'sish sharoitlari, biologik xususiyatlari hamda dalalarni ifloslanish turi va darajasini hisobga olish kerak bo'ladi. Dalalarni

begona oʻtlardan oʻz vaqtida toza boʻlishini taʼminlash uchun begona oʻtlarga qarshi kurash tizimini ilmiy asosda rejalashtirish va olib borish lozim. Bir dalada bir gerbitsidni har yili qoʻllash shu preparatga chidamli boʻlgan turlarni yildan-yilga koʻpayib borishiga olib keladi.

Kimyoviy kurash choralarining samaradorligini yuqori boʻlishini taʼminlash uchun taʼsir doirasi har xil boʻlgan gerbitsidlarni ketma-ket qoʻllash lozim. (Shodmanov, 2003). Shundan kelib chiqqan holda biz oʻz tajribamizda Chigit ekish bilan Stomp 33% e.k. va oʻsimlikning vegetatsiya davrida Zeldek ekstra 104 g/l em.k. Bir yillik begona oʻtlar 2-6 barg davrida va koʻp yillik begona oʻtlarning boʻyi 10-15 sm boʻlganda purkab gerbitsidlarni ketma-ket qoʻllashning samaradorligini aniqlash boʻyicha ilmiy tadqiqot ishlarini olib bordik.

Tadqiqotni bajarish sharoiti va usubiyati. Ilmiy tadqiqot ishlari 2022 yilda Andijon viloyati Oltinkoʻl tumanidagi Agro klaster xoʻjaligining och tusli boʻz tuproqlari sharoitida oʻtkazildi. Tajriba qoʻyish va oʻtkazishda qabul qilingan uslublardan foydalanildi (OʻzPITI, 2007). Tajriba 6 ta variant boʻyicha 4 ta takrorlashda oʻtkazildi. Tajriba maydoniga Gʻoʻzaning An 402 navi ekildi.

Tadqiqot natijalari. Nazorat variantida 1-hisob davrida kurmak 14,5 dona/m², yovvoyi gultojxoʻroz 6,8 dona/m², ituzum 5,20 dona/m² va semizoʻt 5,5 dona/m² ni tashkil etdi. Bu variantda bir yillik begona oʻtlarning soni jami 42,4 dona/m² ga teng boʻlgan. Koʻp yilliklar soni esa bu variantda 4,2 dona/m² ni tashkil etdi. Stomp 33% e.k. va Zeldek ekstra gerbitsidlari 1 l/ga meʼyorda ketma-ket qoʻllanilgan variantlarda bir yillik begona oʻtlar 83,0-91,6 %, koʻp yillik begona oʻtlar 88,7-89,1 % kamaygan. Yaʼni, taʼsir doirasi har xil boʻlgan preparatlar bir yillik begona oʻtlarni ham, koʻp yillik begona oʻtlarni ham samarali kamaytirgan.

Gerbitsidlar yordamida begona oʻtlarni oʻz vaqtida yoʻqotish gʻoʻzaning oʻsishi va rivojlanishi uchun qulay sharoit yaratadi va hosildorlikni yuqori boʻlishini taʼminlaydi. Bu variantlarda nazorat variantiga nisbatan 3,4-3,8 s/ga koʻp paxta hosili olingan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Nurmatov Sh. va boshq. Dala tajribalarini oʻtkazish uslubiyati. Toshkent, 2007.
2. Shodmanov M. Gʻoʻzada har xil uslublarda gerbitsidlarni qoʻllanishi samaradorligi. «Oʻzbekiston agrar fani xabarnomasi» №3(13) 2003. 44-46 b.
3. Алеев Б.Г., Жўрақулов А.Ж., Ахмедов Х.А., Мирзаев А.М.- методические указания по учету распространения семян сорняков и засоренности посевов сельскохозяйственных культур в хлопковых севооборотах. Ташкент, 1981.
4. Distributed Diseases Of Cabbage In The Conditions Of Uzbekistan. M.X. Kambarova, M.B. Rasulova.